

РОССИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ А.И. ГЕРЦЕНА



СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: МОДЕЛИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

Материалы международной
научно-практической конференции

Санкт-Петербург
(16-мая 2025 г.)

Egamberdiyeva Matluba Komil qizi

Magistratura 1-bosqich talabasi

Telefon raqam: 93.952.04.16

e.mail: matlubaeqamberdiyeva8@gmail.com

QAYERDA XATO QILYAPMIZ ...

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan muammolar, xususan, pedagoglarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, zamonaviy metod va texnologiyalarning yetishmasligi, ota-onalar savodxonligi darajasining pastligi hamda tizimli monitoring va nazoratning yetarli emasligi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar bilan taqqoslash asosida mavjud kamchiliklarning ildizi aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Muallif maktabgacha ta'limni rivojlantirishda inson kapitali, malakali pedagoglar va oilaviy-ta'limiy hamkorlikni kuchaytirish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, pedagog, zamonaviy metod, texnologiya, ota-ona, monitoring, innovatsiya, ta'lim sifati, xorijiy tajriba, inson kapitali, tizimli yondashuv, STEM, global tajriba.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim – insoniyatning kelajagini quruvchi asosiy pog'ona. Biroq, jahon miqyosida 170 million bola bu imkoniyatdan mahrum.³ Bu faqatgina moliyaviy muammolar emas, balki tizimning chuqur institutsional kamchiliklari, madaniy stereotiplar va noto'g'ri siyosatlar natijasidir. Global tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limdagi muammolar ko'plab omillar bilan bog'liq. Birinchidan, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda bu sohadagi moliya

³ UNICEF: Maktabgacha ta'lim bo'yicha global hisobot.

 <https://www.unicef.org/media/158496/file/Global-report-on-early-childhood-care-and-education-2024-1.pdf>

taqsimoti adolatsiz bo'lib, ta'lim infratuzilmasining yetishmovchiligi kuzatiladi. Ikkinchidan, ta'lim standartlarining bir xillikdan yiroqligi va pedagoglarning malakasi yetarli darajada emasligi ta'lim samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimini ham chetda qoldirmay o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmiyapti. Aynan maktabgacha ta'lim rivojlanishi xalqaro standartlar bilan solishtirganda ancha ortda qolmoqda. Jumladan davlatimizdagi bog'chalar bir qancha rivojlangan davlatlar (AQSH, Finlandiya, Yaponiya) bog'chalari bilan solishtirib ko'rilganda ancha ortda qolayotgani ma'lum. Buning sababi nimada? Xo'sh biz qayerda xato qilyapmizki, bizning maktabgacha ta'lim muassasalarimiz reytingi qolgan davlatlarnikiga nisbatan sezilarli darajada past. Tahlil natijalariga asoslangan holda maqolada maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun amaliy strategiyalar ilgari suriladi. Jumladan, ta'lim standartlarini unifikatsiya qilish, pedagoglarni zamonaviy metodikalar asosida tayyorlash, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash hamda ota-onalarni faol ishtirok etishga undash kabi yechimlar muhokama qilinadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar asosida ilg'or pedagogik yondashuvlar tavsiya etilib, ta'lim tizimini yanada samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tizimida yangi pedagogik metodlarning qo'llanilishi va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish jarayoni davom etayotgan bo'lsa-da, ularning keng miqyosda va samarali tarzda tatbiq etilmasligi masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Jumladan Montessori metodi va STEAM texnologiyalari, butun dunyo bo'ylab ta'lim sohasida o'z samaradorligini namoyon etgan metodikalar sifatida, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga kirib kelgan bo'lsa-da, ularning to'liq tatbiq etilishi, o'z o'rnida, bir qator to'siqlarga duch kelmoqda. Ushbu xatoliklarning sabablari va ularni bartaraf etish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni tahlil qilish ta'lim tizimining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Montessori metodining asosiy tamoyillari bolalarning mustaqil o'rganishiga, ularning individual rivojlanishiga va erkin ta'lim muhitining yaratilishiga asoslanadi. ⁴Mohiyatdan Montessori metodi bu-hayotdan o'zlashtirilgan "tabiiy" usul sifatida ommalashgan bo'lib, Shvetsiya, Finlandiya va Kanada kabi davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Biroq, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida Montessori metodini keng miqyosda tatbiq etish hali o'z o'rnini to'liq topmagan. Bu holatning sabablari ko'pdir. Avvalo, pedagogik kadrlarning bu metodni o'zlashtirish darajasi pastligi, shuningdek, an'anaviy ta'lim tizimining kuchli o'rni mavjudligi bu metodning kengayishiga to'sqinlik qilmoqda. Montessori metodini muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun bolalar ta'limi uchun maxsus tayyorlangan materiallar, pedagogik usullar va erkin o'rganishga moslashgan infratuzilma zarur. Biroq, ko'plab maktabgacha ta'lim muassasalarida bunday shart-sharoitlar hali mavjud emas.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) metodologiyasi zamonaviy ta'limda bolalarning ilmiy va texnologik tafakkurini rivojlantirishda katta o'rin egallaydi. Bu metodika ta'limning barcha sohalarini birlashtirib, bolalar uchun ko'p yo'nalishli, har tomonlama rivojlanishni ta'minlashni maqsad qilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida STEAM texnologiyalarining tatbiqi ancha muhim, chunki bu metod bolalar ta'limining zamonaviy talablarga javob berishini ta'minlaydi. Biroq, bu texnologiyaning keng qo'llanilmasligi bir qator omillar bilan bog'liq. Eng asosiysi, o'qituvchilarning ushbu metodikaga tayyorlash darajasining pastligi va STEAM faoliyatini qo'llash uchun zarur bo'lgan texnik va metodik infratuzilmaning yetishmovchiligi hisoblanadi. Shu bilan birga, STEAM metodining samarali tatbiqi, nafaqat bolalar uchun, balki o'qituvchilar va pedagoglar uchun ham yangi pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladi. Har ikkala metod ham O'zbekiston talimiga kirib kelganiga ancha bo'ldi ammo bazi bir sabablar tufayli yetarlicha

⁴ Journal of Montessori Research  Journal of Montessori Research

singib ketilmiyapti. Misol uchun boshqa mamlakatlar, masalan, Yaponiyaning maktabgacha ta'lim tizimi bilan O'zbekistonni taqqoslaganda, aniq farqlar mavjud. Yaponiyada bolalar ta'limida individual yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish odatiy holga aylangan. Shu bilan birga, Yaponiyaning ta'lim tizimida pedagogik kadrlarning yuqori malakasi, mustahkam infratuzilma va innovatsion metodlarni tatbiq etishga tayyorlik alohida e'tiborga loyiqdir. O'zbekistonda esa, garchi maktabgacha ta'limda bir qator islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, an'anaviy pedagogik yondashuvlar, resurslarning yetarli emasligi va pedagogik malaka darajasi pastligi bu jarayonni sekinlashtirmoqda. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi, rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda, hali to'liq integratsiya va zamonaviy pedagogik metodlarni tatbiq etishda ba'zi muammolarga duch kelmoqda. Montessori metodi va STEAM texnologiyalarining muvaffaqiyatli tatbiq etilishi uchun, birinchi navbatda, pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish va metodik materiallar bilan ta'minlash zarur.

Bu omillarni hisobga olgan holda, maktabgacha ta'lim tizimining samarali rivojlanishi va global ta'lim tendensiyalariga moslashishi uchun bir qator islohotlar amalga oshirilishi lozim, shundagina O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi ham global ta'lim standartlariga yetib borishi mumkin.

MUHOKAMA

Bugungi kunda Janubiy Koreya, Finlyandiya va Yaponiya kabi mamlakatlar maktabgacha ta'lim sifati bo'yicha eng yuqori natijalarga ega davlatlar qatoriga kiradi.⁵ Masalan, Janubiy Koreyada davlat va xususiy bog'chalar o'rtasida raqobat mavjud bo'lib, pedagoglarning malaka oshirish tizimi qat'iy nazorat qilinadi. Har bir pedagog maktabgacha ta'lim muassasasida ishlashdan oldin maxsus attestatsiyadan o'tadi, bu esa ta'lim sifati barqarorligini ta'minlaydi. Koreya bog'chalarining moddiy-texnik bazasi yuqori darajada bo'lib, barcha

⁵ Starting Strong 2017: Key OECD Indicators on Early Childhood Education and Care. OECD Publishing, Paris.
<https://www.oecd.org/publications/starting-strong-2017-9789264276116-en.htm>

zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Finlyandiya bog‘chalarida esa bolalar erkin muhitda o‘rganishadi, bunda stress omili kamaytirilgan va bolalar mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Yaponiyada esa bog‘cha ta’limining asosiy tamoyili bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Keling shunday ekan, o‘sha sabablardan bazilari bilan tanishaylik.

To‘siq kategoriyasi	Sabablar	Ta’siri
1.Moliyaviy resurslar yetishmasligi	-Byudjetning notog‘ri taqsimlanishi	Sifatli o‘quv materiallari va shinam xonalar yetishmasligi
2. Ota-ona savodxonligi pastligi	-Bolalar rivojlanishi haqida bilimlarning yetishmasligi, raqamli qurilmalarga haddan tashqari bog‘liqlik	Bolalarning psixikasi va kognitiv qobiliyatlari pasayishi
3. Pedagogik yondashuvdagi kamchiliklar	-O‘yinni chetlatib, akademik bosim bilan mashg‘ulot o‘tish, zamonaviy metodlar qo‘llamaslik	Mashg‘ulotlar bir xillika asoslanib, kreativlik va mustaqil fikrlashni yo‘qotish
4. Infratuzilma va geografik tengsizlik	-Shahar va qishloq o‘rtasidagi tavofut, nogiron bolalar uchun moslashtirilgan binolar yo‘qligi (chekka hududlarda)	Ta’lim imkoniyatlarining noteng taqsimlanishi
5. Pedagoglar kamolati va maoshi	-Past maosh tufayli kadrlar yetishmasligi, malaka oshirish dasturlarining samarasizligi	Sifatli ta’limning susayishi

NATIJALAR. YECHIMLAR

Maktabgacha ta’lim tizimidagi muammolar va ularning yechimlari

1 Moliyaviy resurslar yetishmovchiligi

Davlat budjetidan ajratiladigan mablagʻlarni oshirish va shaffof taqsimlash.
Xususiy sektor va xalqaro donorlarni jalb qilish.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida yangi bogʻchalar qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish.

2 Ota-onalar savodxonligi pastligi

Ota-onalar uchun bepul seminarlar va treninglar tashkil etish.

Ommaviy axborot vositalari orqali pedagogik savodxonlikni oshirish kampaniyalarini oʻtkazish.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida ota-onalar bilan interaktiv mashgʻulotlarni yoʻlga qoʻyish.

3 Pedagogik yondashuvdagi kamchiliklar

Zamonaviy taʼlim metodikalarini (Montessori, STEAM, Reggio Emilia) joriy etish.

Pedagoglar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Taʼlim jarayonida innovatsion texnologiyalar va oʻyin metodikasidan keng foydalanish.

4 Infratuzilma va geografik tengsizliklar

Qishloq joylarda yangi bogʻchalar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish.

Masofaviy taʼlim platformalarini rivojlantirish va mobil bogʻchalar tashkil etish.

Transport tizimini yaxshilash va qishloq joylardagi taʼlim muassasalarini texnik vositalar bilan taʼminlash.

5 Pedagoglar kamolati va maoshi

Pedagoglar maoshini oshirish va ularni moddiy ragʻbatlantirish tizimini kuchaytirish.

Ustozlar uchun xalqaro tajriba almashinuv dasturlarini yoʻlga qoʻyish.

Ilgʻor pedagoglarni mukofotlash va ular uchun grant dasturlarini tashkil etish.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tizimining kutilgan darajada yuksalmasligining sabablari chuqur tahlil etilganda, muammo faqat tashkiliy yoki moddiy omillarda emas, balki tizimni tashkil etuvchi insoniy va metodik asoslarda ham mujassam ekani ayon bo'ladi. Avvalo, pedagog kadrlarning moddiy rag'batlantirilishi va ijtimoiy maqomi yetarli darajada ta'minlanmagani ularning kasbiy motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or metodikalar bilan yetarlicha ta'minlanmaslik ta'lim jarayonining sifatsiz va natijasiz kechishiga olib kelmoqda. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish uchun tizimga yangicha yondashuv, kuchli ilmiy asos, inson kapitaliga sarmoya kiritish, metodik yangilanish va jamiyat bilan faol hamkorlik zarur. Aks holda, islohotlar qog'ozda qolib, ta'lim sifati real hayotda o'z aksini topmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNICEF: Maktabgacha ta'lim bo'yicha global hisobot.

 <https://www.unicef.org/media/158496/file/Global-report-on-early-childhood-care-and-education-2024-1.pdf>

2. Journal of Montessori Research  Journal of Montessori Research

3. Starting Strong 2017: Key OECD Indicators on Early Childhood Education and Care. OECD Publishing, Paris.
<https://www.oecd.org/publications/starting-strong-2017-9789264276116-en.htm>

27.	Kuvondikov Sardorkhon THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING THE MECHANISM FOR THE DEVELOPMENT OF VALEOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS	182
28.	Kuvondikov Sardorkhon Ruxsora Ilxomjanova DYNAMIC SITUATION AS A META-WAY OF PERCEPTION AND UNDERSTANDING OF COMPETITIVE ACTIVITY IN MARTIAL ARTS	188
29.	Kuvondikov Sardorkhon Fatxullayev Fayozbek CONTROL OF ATHLETES' MOTOR ABILITIES AT DIFFERENT STAGES OF EDUCATIONAL AND TRAINING ACTIVITIES	196
30.	Kuvondikov Sardorkhon Fatxullayev Fayozbek OUTDOOR GAMES AS AN EFFECTIVE MEANS OF TRAINING YOUNG ATHLETES	203
31.	Kuvondikov Sardorkhon- Ilxomjanova Ruxsora THE RATIO OF TRADITIONS AND INNOVATIONS IN SPORTS MARTIAL ARTS	210
32.	Nosirova Ra'no Xamidovna Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi BOLALARNI KELAJAK KASBLARIGA YO'NALTIRSHDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING AHAMIYATI	215
33.	Egamberdiyeva Matluba Komil qizi QAYERDA XATO QILYAPMIZ ...	223
34.	Quralbayeva Lazzat Jarasbay qizi Farmonov O'ktam Ne'matovich MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA KONSTRUKTIV MODELLASHTIRISHNING MOHIYATI	230
35.	Khakimova Khosiat Jurayevna THE IMPORTANCE OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN DEVELOPING ORAL SPEECH IN ENGLISH FOR PRIMARY SCHOOL CHILDREN	238